XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 30-aprel VI-101-53-14-0-K/24 Toshkent shahri

Toshkent shahrining Bektemir va Yakkasaroy tumanlaridagi mahallalarning aniq chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 2014-yil 4-martdagi 48-son qaroriga asosan xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 16-avgustdagi PQ–353-son qarorining 4-bandi ijrosini ta’minlash yuzasidan Bektemir tumani hokimi va Yakkasaroy tumani hokimining tumanlardagi mahallalarning chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi kiritgan taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Bektemir tumani mahallalarning chegara chiziqlari tavsiflari 1-ilovaga muvofiq;

Bektemir tumani mahallalari chegaralarining xaritalari albomi 2-ilovaga muvofiq;

Yakkasaroy tumani mahallalarning chegara chiziqlari tavsiflari 3-ilovaga muvofiq;

Yakkasaroy tumani mahallalari chegaralarining xaritalari albomi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Mahallalar uyushmasining Toshkent shahar boshqarmasi (F.Mahmudxo‘jayev), Bektemir tumani hokimligi (N.Abduraxmanov), Yakkasaroy tumani hokimligi (N.Allabergenova):

mahallalar chegaralari o‘zgarishi bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi o‘rtasida tegishli tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalar hududida infratuzilmani rivojlantirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirishda;

aholi sonini mahallalar kesimida hisobga olishda;

ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan oilalarga moddiy ko‘maklashishni tashkil etishda tasdiqlangan mahalla chegaralariga qat’iy amal qilinsin.

4. O‘zbekiston Mahallalar uyushmasining Toshkent shahar boshqarmasi (F.Maxmudxo‘jayev), Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi, Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov), Toshkent shahar Statistika boshqarmasi (L.Mirsoatov) mazkur qarorga asosan tegishli hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda o‘zgartirishlar kiritsin hamda bu borada zarur choralarni ko‘rsin.

5. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmatiga mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va www.toshkent.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi O.Jiyanboyev, Toshkent shahar hokimining birinchi o‘rinbosari B.Raxmonov va Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari A.Xen zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi

MATIBAYEV
TASPOLAT
BALTABAYEVICH

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 30-apreldagi
VI-101-53-14-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent shahar Bektemir tumani mahallalarning chegara chiziqlari tavsiflari

1. “Mirishkor” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5235-son chegara nuqtasi Ohangaron shohko‘chasining markaziy o‘qidan 32 metr shimoliy-sharqda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 44.20", L – 69° 22' 27.22".

5235-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda Ohangaron shohko‘chasining markaziy o‘qidan 32 metr masofada shimoliy-sharqiy tomoni bo‘ylab 5219-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda Toshkent shahrining ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

5219-son chegara nuqtasi Ohangaron shohko‘chasining markaziy o‘qidan 32 metr shimoliy-sharqda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 22.60", L – 69° 22' 54.64".

5219-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda, Ohangaron shohko‘chasini kesib o‘tgan holda, quyidagi koordinatalarga ega nuqtalar orqali o‘tadi:

B – 41° 15' 19.43", L – 69° 22' 50.00";

B – 41° 15' 22.89", L – 69° 22' 45.26";

B – 41° 15' 16.24", L – 69° 22' 36.09".

So‘ng 291-maktab chegarasiga o‘tadi va u bo‘ylab 174 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 5220-son chegara nuqtasiga boradi.

5220-son chegara nuqtasi aholi chiqindilarini to‘plash punkitining g‘arbida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 12.45", L – 69° 22' 30.79".

5220-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda asfalt yo‘lni kesib o‘tib, uning g‘arbiy tomoni bo‘ylab 112 metr o‘tadi, keyin Husayn Boyqaro ko‘chasi markazi bo‘ylab 493 metr o‘tadi, keyin shu yo‘nalishda 5222-son chegara nuqtasiga boradi.

5222-son chegara nuqtasi Husayn Boyqaro ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 53.27", L – 69° 21' 50.77".

5222-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Husayn Boyqaro ko‘chasining markazi bo‘ylab 5233-son chegara nuqtasiga boradi.

5233-son chegara nuqtasi Yuqori Chirchiq ko‘chasining Husayn Boyqaro ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 30.54", L – 69° 20' 58.24".

5233-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziq bilan asfalt yo‘lga o‘tadi va ushbu yo‘l markazi bo‘ylab Chirchiq daryosining qirg‘og‘iga chiqadi, keyin Chirchiqbo‘yi ko‘chasining Chirchiq daryosi tomonidan 1162 metr o‘tadi, so‘ng, Chirchiq daryosini temir yo‘l izlarining markazi bo‘ylab kesib o‘tgan holda, 5218-son chegara nuqtasiga boradi.

5218-son chegara nuqtasi Xonobodtepa shohko‘chasining markaziy o‘qidan 23 metr janubiy-sharqida, temir yo‘l izlarining markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 9.16", L – 69° 21' 23.96".

5218-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Xonobodtepa shohko‘chasining markaziy o‘qidan 23 metr masofada janubiy-sharqiy tomoni bo‘ylab 1805 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 46 va 55 metrli kesimlar bilan Ohangaron shohko‘chasining sharqiy tomoniga o‘tadi. Keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda Ohangaron shohko‘chasining shimoliy-sharqiy tomoni bo‘ylab 5235-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

2. “Rohat” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5219-son chegara nuqtasi Ohangaron shohko‘chasining markaziy o‘qidan 32 metr shimoliy-sharqda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 22.60", L – 69° 22' 54.64".

5219-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda Ohangaron shohko‘chasining markaziy o‘qidan 32 metr masofada 5236-son chegara nuqtasiga bradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda Toshkent shahrining ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

5236-son chegara nuqtasi Ohangaron shohko‘chasining markaziy o‘qidan 32 metr shimoliy-sharqda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 16.44", L – 69° 23' 2.44".

5236-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda Ohangaron shohko‘chasini kesib o‘tadi, keyin Rohat ko‘chasidagi asfalt yo‘lning shimoliy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab 290 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 176 metr o‘tadi va mazkur yo‘lning shimoliy tomoni bo‘ylab 223 metrdan keyin 5227-son chegara nuqtasiga boradi.

5227-son chegara nuqtasi asfalt yo‘lning shimoliy-g‘arbida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 59.42", L – 69° 22' 40.06".

5227-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziq bo‘yicha noturar obyekt devoriga o‘tadi, keyin ushbu devor bo‘ylab 214 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha asfalt yo‘l markaziga chiqadi, keyin ushbu yo‘l markazi bo‘ylab 215 metr o‘tadi va 5220-son chegara nuqtasiga boradi.

5220-son chegara nuqtasi aholi chiqindilarini to‘plash punkitining g‘arbida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 12.45", L – 69° 22' 30.79".

5220-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 291-maktab chegarasiga o‘tadi, so‘ng maktab chegarasi bo‘ylab 174 metr o‘tadi, keyin quyidagi koordinatalarga ega nuqtalar orqali o‘tadi:

B – 41° 15' 19.43", L – 69° 22' 50.00";

B – 41° 15' 22.89", L – 69° 22' 45.26";

B – 41° 15' 16.24", L – 69° 22' 36.09".

So‘ng to‘gri chiziq bo‘yicha, Ohangaron shohko‘chasini kesib o‘tgan holda, 5219-son chegara nuqtasiga boradi.

3. “Zilola” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5220-son chegara nuqtasi aholi chiqindilarini to‘plash punkitining g‘arbida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 12.45", L – 69° 22' 30.79".

5220-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda asfalt yo‘l markaziga o‘tadi va u bo‘ylab 215 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha noturar obyekt devoriga chiqadi, keyin ushbu devor bo‘ylab 214 metr o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 5227-son chegara nuqtasiga boradi.

5227-son chegara nuqtasi asfalt yo‘lning shimoliy-g‘arbida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 59.42", L – 69° 22' 40.06".

5227-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Rohat ko‘chasidagi asfalt yo‘lning shimoliy-g‘arbiy tomoni

bo‘ylab Barhayot ko‘chasiga chiqadi, so‘ng ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 34 metrdan keyin 5225-son chegara nuqtasiga boradi.

5225-son chegara nuqtasi Barhayot ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 53.25", L – 69° 22' 26.81".

5225-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Barhayot ko‘chasi markazi bo‘ylab 176 va 162 metr o‘tgandan keyin 5223-son chegara nuqtasiga boradi.

5223-son chegara nuqtasi Barhayot ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 1.21", L – 69° 22' 16.85".

5223-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Barhayot ko‘chasi markazi bo‘ylab Husayn Boyqaro ko‘chasiga chiqadi, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Husayn Boyqaro ko‘chasi markazi bo‘ylab 496 metrda o‘tadi, so‘ng asfalt yo‘lning g‘arbiy tomoni bo‘ylab 112 metr o‘tadi va to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 5220-son chegara nuqtasiga boradi.

4. “Majnuntol” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5236-son chegara nuqtasi Ohangaron shohko‘chasining markaziy o‘qidan 32 metr shimoliy-sharqda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 16.44", L – 69° 23' 2.44".

5236-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda Ohangaron shohko‘chasining markaziy o‘qidan 32 metr masofada uning shimoliy-sharqiy tomoni bo‘ylab 1062 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha Ohangaron shohko‘chasini kesib o‘tgan holda, yoysimon asfalt yo‘lning g‘arbiy tomoniga chiqadi, keyin shu yo‘lning g‘arbiy tomoni bo‘ylab 541 metr o‘tadi, so‘ng THAYni kesib o‘tadi, keyin THAY markaziy o‘qidan 32 metr masofada 5228-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda Toshkent shahrining ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

5228-son chegara nuqtasi THAYning markaziy o‘qidan 32 metr janubiy-sharqda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 16.44", L – 69° 23' 2.44".

5228-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziq bo‘yicha THAYni kesib o‘tadi, keyin Barhayot ko‘chasidagi asfalt yo‘lning janubiy tomoni bo‘ylab 696 metr va markazi bo‘ylab 45 metr o‘tadi, so‘ng Malohat ko‘chasi markazi bo‘ylab 264 metr o‘tadi, keyin Nurota ko‘chasining shimoliy tomoni bo‘ylab o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 40 va 20 kesimlar bilan asfalt yo‘lning shimoliy tomoniga chiqadi va u bo‘yicha 281 metr o‘tadi. Keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Baqtriya yo‘lning sharqiy

tomoni bo‘ylab 28 metr o‘tadi, keyin ariq bo‘ylab Barhayot ko‘chasiga chiqadi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 238 metr o‘tadi, so‘ng asfalt yo‘lning shimoliy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab 5227-son chegara nuqtasiga boradi.

5227-son chegara nuqtasi asfalt yo‘lning shimoliy-g‘arbida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 59.42", L – 69° 22' 40.06".

5227-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Rohat ko‘chasidagi asfalt yo‘lning shimoliy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab 223 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 176 metr o‘tadi va mazkur yo‘lning shimoliy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab 290 metr o‘tadi, so‘ng, to‘g‘ri chiziq bo‘yicha Ohangaron shohko‘chasini kesib o‘tgan holda, 5236-son chegara nuqtasiga boradi.

5. “Nurafshon” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5218-son chegara nuqtasi Xonobodtepa shohko‘chasining markaziy o‘qidan 23 metr janubiy-sharqida, temir yo‘l izlarining markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 9.16", L – 69° 21' 23.96".

5218-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda, Chirchiq daryosini temir yo‘l izlarining markazi bo‘ylab kesib o‘tadi, keyin Chirchiqbo‘yi ko‘chasining Chirchiq daryosi tomonidan 1162, 1084 va 451 metr masofalarni o‘tadi, so‘ng, Farg‘ona yo‘li ko‘chasini kesib o‘tgan holda, Chirchiq daryosining beton qirg‘og‘i bo‘ylab 5216-son chegara nuqtasiga boradi.

5216-son chegara nuqtasi Chirchiq daryosining janubiy tomonida va asfalt yo‘ning shimolida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 13' 52.37", L – 69° 19' 20.12".

5216-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda keyin to‘g‘ri chiqiq bo‘yicha beton dambagacha o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 596, 919, 273, 877 va 1280 metrli kesimlar bilan 5215-son chegara nuqtasiga boradi.

5215-son chegara nuqtasi Chirchiq daryosida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 12' 34.95", L – 69° 16' 59.99".

5215-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziqli 41, 170, 144, 146, 313, 386 va 260 metrli kesimlar bilan o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 6061-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

6061-son chegara nuqtasi Chirchiq daryosi qirg‘og‘idan shimoliy-g‘arbda, yakka tartibdagi turar joylarning tugash qismida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 13' 17.92", L – 69° 17' 20.76".

6061-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziqli 324, 58, 32, 76, 60, 144, 114, 90, 128, 69, 56 va 86 metrli kesimlar bilan o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 6064-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

6064-son chegara nuqtasi Chirchiq daryosi qirg‘og‘idan shimoliy-g‘arbda, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonasiga kiradigan yo‘lda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 13' 46.80", L – 69° 18' 16.86".

6064-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziqli 228, 153 va 35 metrli kesimlar bilan Porloq ko‘chasiga chiqadi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 7002-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

7002-son chegara nuqtasi Porloq ko‘chasining Xonobodtepa shohko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 15.41", L – 69° 19' 18.18".

7002-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda, Xonobodtepa shohko‘chasi va yer usti metro yo‘lini 15, 119 metrli kesimlar bilan kesib o‘tigan holda, Qo‘yliqota ko‘chasiga chiqadi, so‘ng shu ko‘chadagi asfalt yo‘lning janubiy tomoni bo‘ylab 7001-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

7001-son chegara nuqtasi Qo‘yliqota ko‘chasining Farg‘ona yo‘li ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 27.21", L – 69° 19' 44.15".

7001-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda 43 metr to‘g‘ri chiziq bilan Farg‘ona yo‘li ko‘chasini kesib o‘tadi, keyin shu ko‘chaning sharqiy tomoni bo‘ylab to‘g‘ri chiziqli 244 va 131 metrli kesimlar bilan yer usti metro yo‘li va Xonobodtepa shohko‘chasini kesib o‘tadi. Keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Xonobodtepa shohko‘chasini janubiy tomoni bo‘ylab 5218-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

6. “Iqbol” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

1-uchastka

5223-son chegara nuqtasi Barhayot ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 1.21", L – 69° 22' 16.85".

5223-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziqli 58, 8, 58, 14, 32, 6 va 124 metrli kesimlar bilan noturar obyektlar chegarasiga o‘tadi va ushbu chegaralar bo‘yicha 208 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha Muxtor Avezov ko‘chasiga chiqadi, so‘ng mazkur ko‘cha markazi bo‘ylab 159 metrdan keyin 5221-son chegara nuqtasiga boradi.

5221-son chegara nuqtasi Muxtor Avezov ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 46.05", L – 69° 21' 57.30".

5221-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda noturar obyektlar devoriga o‘tadi va u bo‘ylab 338 metr o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 35 metrdan keyin 5222-son chegara nuqtasiga boradi.

5222-son chegara nuqtasi Husayn Boyqaro ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 53.27", L – 69° 21' 50.77".

5222-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda Husayn Boyqaro ko‘chasi markazi bo‘ylab Barhayot ko‘chasigacha boradi, keyin mazkur ko‘cha markazi bo‘ylab 5223-son chegara nuqtasiga boradi.

2-uchastka

5225-son chegara nuqtasi Barhayot ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 53.25", L – 69° 22' 26.81".

5225-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda asfalt yo‘lning janubiy-sharqiy tomoni bo‘ylab 142 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 17, 17, 22 va 63 metrli kesimlar bilan boshqa asfalt yo‘lning shimoliy-g‘arbiy tomoniga chiqadi va u bo‘yicha 141 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 20 va 200 metrli kesimlar bilan boshqa asfalt yo‘lning shimoliy-g‘arbiy tomoniga chiqadi va u bo‘ylab 5226-son chegara nuqtasiga boradi.

5226-son chegara nuqtasi asfalt yo‘lining shimoliy-g‘arbiy tomonida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 33.11", L – 69° 22' 8.89".

5226-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziqli 55, 88 va 103 metrli kesimlar bilan 6-MTM devoriga chiqadi va ushbu devor bo‘ylab 5224-son chegara nuqtasiga boradi.

5224-son chegara nuqtasi 6-MTMning devorida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 42.69", L – 69° 22' 0.38".

5224-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 6-MTM devori bo‘ylab 65 metr o‘tadi va asfalt yo‘lning janubiy-sharqiy tomonidan 140 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 170, 8, 81, 11 va

207 metrli kesimlar bilan Barhayot ko‘chasiga o‘tadi, so‘ng ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 5225-son chegara nuqtasiga boradi.

7. “Chashma” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5223-son chegara nuqtasi Barhayot ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 1.21", L – 69° 22' 16.85".

5223-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Barhayot ko‘chasi markazi bo‘ylab 162 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 207, 11, 81, 8 va 170 metrli kesimlar bilan asfalt yo‘lning janubiy-sharqiy tomoniga chiqadi va u bo‘ylab 140 metr o‘tadi, keyin 6-MTM devoriga o‘tadi, so‘ng ushbu devor bo‘ylab 5224-son chegara nuqtasiga boradi.

5224-son chegara nuqtasi 6-MTMning devorida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 42.69", L – 69° 22' 0.38".

5224-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziqli 40, 27, 5, 21, 8 va 30 metrli kesimlar bilan o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 5221-son chegara nuqtasiga boradi.

5221-son chegara nuqtasi Muxtor Avezov ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 46.05", L – 69° 21' 57.30".

5221-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Muxtor Avezov ko‘chasi markazi bo‘ylab 159 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha noturar obyektlar chegarasiga o‘tadi, so‘ng ushbu chegaralar bo‘yicha 208 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 124, 6, 32, 14, 58, 8 va 58 metrli kesimlar bilan 5223-son chegara nuqtasiga boradi.

8. “Iykota” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5225-son chegara nuqtasi Barhayot ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 53.25", L – 69° 22' 26.81".

5225-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda Barhayot ko‘chasi markazi bo‘ylab 34 va 238 metr masofalarni o‘tadi, keyin ariq bo‘ylab Baqtriya ko‘chasigacha boradi, so‘ng ushbu ko‘chaning sharqiy tomoni bo‘ylab 28 metr o‘tadi. Keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda asfat yo‘lning shimoliy tomoni bo‘ylab 281 metr o‘tadi va to‘g‘ri chiziqli 20 va 40 metrli kesimlar bilan Nurota ko‘chasining shimoliy tomoniga chiqadi, so‘ng ushbu ko‘chaning shimoliy tomoni bo‘ylab Malohat ko‘chasiga chiqadi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 264 metr, Barhayot ko‘chasi markazi bo‘ylab 45 metr va janubiy tomoni bo‘ylab 696 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha, THAYni kesib o‘tgan holda, 5228-son chegara nuqtasiga boradi.

5228-son chegara nuqtasi THAYning markaziy o‘qidan 32 metr janubiy-sharqda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 15' 16.44", L – 69° 23' 2.44".

5228-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda THAYni markaziy o‘qidan 32 metr masofada 5229-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda Toshkent shahrining mamuriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

5229-son chegara nuqtasi THAYning markaziy o‘qidan 32 metr janubiy-sharqda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 13' 49.69", L – 69° 22' 27.41".

5229-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda THAYni to‘g‘ri chiziq bo‘yicha kesib o‘tadi, keyin asfalt yo‘l markazi bo‘ylab 756 metr o‘tadi, keyin boshqa asfalt yo‘lning g‘arbiy tomoni bo‘ylab 813 metr o‘tadi, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda asfalt yo‘l markazi bo‘ylab 665 metr o‘tadi, so‘ng noturar obyektlar chegarasiga o‘tadi va u bo‘yicha 262 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 5231-son chegara nuqtasiga boradi.

5231-son chegara nuqtasi yo‘lning markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 10.08", L – 69° 21' 25.48".

5231-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziqli 98 va 429 metrli kesimlar bilan asfalt yo‘lning janubiy tomoniga chiqadi, keyin ushbu yo‘lning janubiy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab 100 metr, boshqa asfalt yo‘lning shimoliy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab 507 metr, boshqa asfalt yo‘lning shimoliy-sharqiy tomoni bo‘ylab 433 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 5226-son chegara nuqtasiga boradi.

5226-son chegara nuqtasi asfalt yo‘lining g‘arbiy tomonida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 33.11", L – 69° 22' 8.89".

5226-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda asfalt yo‘l shimoliy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab yo‘l oxorigacha o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 200 va 20 metrli kesimlar bilan boshqa asfalt yo‘lning g‘arbiy tomoniga chiqadi, keyin ushbu yo‘lning shimoliy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab 141 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 63, 22, 17 va 17 metrli kesimlar bilan boshqa asfalt yo‘lning janubiy-sharqiy tomoniga chiqadi, so‘ng ushbu asfalt yo‘l janubiy-sharqiy tomoni bo‘ylab 142 metrdan keyin 5225-son chegara nuqtasiga boradi.

9. “Abay” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5222-son chegara nuqtasi Husayn Boyqaro ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 53.27", L – 69° 21' 50.77".

5222-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 35 metrdan keyin noturar obyektlar devoriga chiqadi, so‘ng ushbu devor bo‘ylab 338 metr o‘tadi va 5221-son chegara nuqtasiga boradi.

5221-son chegara nuqtasi Muxtor Avezov ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 46.05", L – 69° 21' 57.30".

5221-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziq bo‘yicha yakka tartibdagi turar joylar chegaralarigacha boradi, keyin to‘g‘ri chiziqli 30, 8, 21, 5, 27 va 40 metrli kesimlar bilan 5224-son chegara nuqtasiga boradi.

5224-son chegara nuqtasi 6-MTMning devorida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 42.69", L – 69° 22' 0.38".

5224-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda 6-MTM devori bo‘ylab o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 103, 88 va 55 metrli kesimlar bilan 5226-son chegara nuqtasiga boradi.

5226-son chegara nuqtasi asfalt yo‘lining shimoliy-g‘arbiy tomonida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 33.11", L – 69° 22' 8.89".

5226-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziq bo‘yicha asfalt yo‘lga chiqadi va shu yo‘lning shimoliy-sharqiy tomoni bo‘ylab 433 metr, boshqa asfalt yo‘lning shimoliy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab 507 metr, boshqa asfalt yo‘lning janubiy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab 100 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 98 va 429 metrli kesimlar bilan 5231-son chegara nuqtasiga boradi.

5231-chegara nuqtasi yo‘lning markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 10.08", L – 69° 21' 25.48".

5231-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziq bo‘yicha asfalt yo‘lga chiqadi, so‘ng ushbu yo‘l markazi bo‘ylab 137 metrdan keyin 5230-son chegara nuqtasiga boradi.

5230-son chegara nuqtasi asfalt yo‘l markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 8.88", L – 69° 21' 15.05".

5230-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda asfalt yo‘l markazi bo‘ylab 67 metr o‘tadi, keyin boshqa asfalt yo‘l markazi bo‘ylab o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chiziqli 39, 57, 27 va 29 metrli kesimlar bilan 5237-son chegara nuqtasiga boradi.

5237-son chegara nuqtasi Yuqori Chirchiq ko‘chasining sharqiy tomonida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 18.06", L – 69° 21' 10.36".

5237-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda, Yuqori Chirchiq ko‘chasini to‘g‘ri chiziq bo‘yicha kesib o‘tagan holda, Kattaariq ko‘chasi markazi bo‘ylab 452 metr o‘tadi, so‘ng Yuqori Chirchiq ko‘chasi markazi bo‘ylab 325 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 78, 30, 28, 40 va 33 metrli kesimlar bilan Kattaariq 1-tor ko‘chasiga o‘tadi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab Yuqori Chirchiq ko‘chasiga chiqadi, so‘ng mazkur ko‘cha markazi bo‘ylab 5232-son chegara nuqtasiga boradi.

5232-son chegara nuqtasi Bektemir kanalidagi ko‘prik markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 3.87", L – 69° 20' 37.56".

5232-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy yo‘nalishda Bilol Nozim ko‘chasi markazi bo‘ylab 282 metr o‘tadi, keyin Jumabozor ko‘chasi markazi bo‘ylab 5217-son chegara nuqtasiga boradi.

5217-son chegara nuqtasi Jumabozor ko‘chasining Husayn Boyqaro ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 7.37", L – 69° 20' 21.21".

5217-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda Jumabozor ko‘chasi markazi bo‘ylab 640 metr, Bilol Nozim ko‘chasi markazi bo‘ylab 692 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 5238-son chegara nuqtasiga boradi.

5238-son chegara nuqtasi Bektemir kanalidagi ko‘prikda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 6.25", L – 69° 20' 46.78".

5238-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda Bektemir kanali markazi bo‘ylab, Yuqori Chirchiq ko‘chasidagi ko‘prikga boradi, so‘ng Yuqori Chirchiq ko‘chasi markazi bo‘ylab 382 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 5233-son chegara nuqtasiga boradi.

5233-son chegara nuqtasi Yuqori Chirchiq ko‘chasining Husayn Boyqaro ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 30.54", L – 69° 20' 58.24".

5233-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Husayn Boyqaro ko‘chasi markazi bo‘ylab 5222-son chegara nuqtasiga boradi.

10. “Husayn Boyqaro” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

1-uchastka

5233-son chegara nuqtasi Yuqori Chirchiq ko‘chasining Husayn Boyqaro ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 30.54", L – 69° 20' 58.24".

5233-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziq bo‘yicha Yuqori Chirchiq ko‘chasigacha o‘tadi va ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 382 metr o‘tadi, keyin Bektemir kanali markazi bo‘ylab 5238-son chegara nuqtasiga boradi.

5238-son chegara nuqtasi Bektemir kanalidagi ko‘prikda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 6.25", L – 69° 20' 46.78".

5238-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziq bo‘yicha Bilol Nozim ko‘chasiga chiqadi va ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 692 metr o‘tadi, so‘ng Husayn Boyqaro ko‘chasi markazi bo‘ylab 640 metrdan keyin 5217-son chegara nuqtasiga boradi.

5217-son chegara nuqtasi Jumabozor ko‘chasining Husayn Boyqaro ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 7.37", L – 69° 20' 21.21".

5217-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Husayn Boyqaro ko‘chasi markazi bo‘ylab 22 metr o‘tadi va to‘g‘ri chiziq bo‘yicha Chirchiqbo‘yi ko‘chasining shimoliy tomoniga chiqadi, keyin mazkur ko‘chaning shimoliy tomoni bo‘ylab 1084 metr o‘tadi, keyin asfalt yo‘lning markazi bo‘ylab 5233-son chegara nuqtasiga boradi.

2-uchastka

5237-son chegara nuqtasi Yuqori Chirchiq ko‘chasining sharqiy tomonida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 18.06", L – 69° 21' 10.36".

5237-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziqli 29, 27, 57 va 39 metrli kesimlar bilan asfalt yo‘lga o‘tadi, keyin ushbu yo‘l markazi bo‘ylab boshqa asfalt yo‘lga chiqadi, so‘ng ushbu yo‘l markazi bo‘ylab 67 metrdan keyin 5230-son chegara nuqtasiga boradi.

5230-son chegara nuqtasi asfalt yo‘l markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 8.88", L – 69° 21' 15.05".

5230-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziq bo‘yicha noturar obyekt devoriga o‘tadi va shu devor bo‘ylab 675 metr, qabriston devori bo‘ylab 327 metr o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 5207-son chegara nuqtasiga boradi.

5207-son chegara nuqtasi kanalda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 13' 41.83", L –69° 20' 44.12".

5207-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda kanal markazi bo‘lab 93 metr o‘tadi. Keyin umumiy g‘arbiy yo‘nalishda qabriston devori bo‘ylab o‘tadi, keyin Billur 1-tor ko‘chasiga o‘tib, ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 233 metr o‘tadi, so‘ng Bektemir kanali markazi bo‘ylab 5206-son chegara nuqtasiga boradi.

5206-son chegara nuqtasi Bektemir kanaldagi piyodalar ko‘prigida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 13' 44.19", L – 69° 20' 25.41".

5206-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Bektemir kanali markazi bo‘ylab 5232-son chegara nuqtasiga boradi.

5232-son chegara nuqtasi Bektemir kanalidagi ko‘prik markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 3.87", L – 69° 20' 37.56".

5232-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Yuqori Chirchiq ko‘chasi markazi bo‘ylab Kattaariq 1-tor ko‘chasigacha o‘tadi va shu ko‘cha markazi bo‘ylab 74 metrda o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 33, 40, 28, 30 va 78 metrli kesimlar bilan Yuqori Chirchiq ko‘chasiga chiqadi, so‘ng mazkur ko‘cha markazi bo‘ylab 325 metr, Kattaariq ko‘chasi markazi bo‘ylab 452 metr o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chiziq bo‘yicha Yuqori Chirchiq ko‘chasini kesib o‘tgan holda, 5237-son chegara nuqtasiga boradi.

11. “Gulbog‘” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5230-son chegara nuqtasi asfalt yo‘l markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 8.88", L – 69° 21' 15.05".

5230-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda asfalt yo‘l markazi bo‘ylab 137 metr o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 5231-son chegara nuqtasiga boradi.

5231-son chegara nuqtasi yo‘lning markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 10.08", L – 69° 21' 25.48".

5231-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda noturar obyektlar chegaralariga o‘tadi, keyin ushbu chegaralar bo‘yicha 262 metr o‘tadi, keyin asfalt yo‘l markaziga o‘tadi va ushbu yo‘l markazi bo‘ylab 665 metr o‘tadi, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda asfalt yo‘lning shimoliy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab 813 metr o‘tadi, so‘ng boshqa asfalt yo‘l markazi

bo‘ylab 756 metr o‘tadi, so‘ng, to‘g‘ri chiziq bo‘yicha THAYni kesib o‘tgan holda, 5229-son chegara nuqtasiga boradi.

5229-son chegara nuqtasi THAYning markaziy o‘qidan 32 metr janubiy-sharqda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 13' 49.69", L – 69° 22' 27.41".

5229-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda THAY markaziy o‘qidan 32 metr masofada 5202-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda Toshkent shahrining mamuriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

5202-chegara nuqtasi THAYning janubiy-sharqiy qismida kanalning markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 13' 2.05", L – 69° 21' 13.61".

5202-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda THAYni kesib o‘tib, kanal markazi bo‘ylab 5201-son chegara nuqtasiga boradi.

5201-son chegara nuqtasi kanal va ariqning ajralish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 13' 32.38", L – 69° 20' 51.16".

5201-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda kanal markazi bo‘ylab 5207-son chegara nuqtasiga boradi.

5207-son chegara nuqtasi kanalda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 13' 41.83", L – 69° 20' 44.12".

5207-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziq bo‘yicha qabriston devoriga o‘tadi, keyin devor bo‘ylab 327 metr va noturar obyekt devori bo‘yicha 675 metr o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 5230-son chegara nuqtasiga boradi.

12. “Bektemir” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5217-son chegara nuqtasi Jumabozor ko‘chasining Husayn Boyqaro ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 7.37", L – 69° 20' 21.21".

5217-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda Jumabozor ko‘chasi markazi bo‘ylab Bilol Nozim ko‘chasigacha o‘tadi, so‘ng ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 282 metrdan keyin 5232-son chegara nuqtasiga boradi.

5232-son chegara nuqtasi Bektemir kanalidagi ko‘prik markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 14' 3.87", L – 69° 20' 37.56".

